

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TAYYORLASHNING TA'LIMIY-INTEGRATIV VA TARBIVAVIY-KREATIV JARAYON UYG'UNLIGI

Dilova Nargiza Gaybullayevna
Buxoro Davlat Universiteti, professori

Annotatsiya. Maqolada globallashuv sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashning pedagogik – psixologik o'ziga xosligi, bugungi kun yoshlarining har tomonlama shakllanishi va ijtimoiy jamiyat taraqqiyotida shaxslarning o'zaro munosabatlar jarayonidagi axborot almashuvining tobora kuchayib borayotganligi, ularni har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyatni yanada takomillashtirishning ta'limiy integrativ va tarbiyaviy-kreativ mazmunga e'tibor qaratishga oid pedagogik ta'limotlar, bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashning ta'limiy-integrativ va tarbiyaviy-kreativ jarayon uyg'unligi asosida ijtimoiy faoliyat jarayoni loyihalashtirilishi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, bo'lajak o'qituvchi, shaxslararo munosabatlar, pedagogik – psixologik o'ziga xoslik, ijtimoiy jamiyat, o'zaro munosabat, ta'limiy integrativ, tarbiyaviy-kreativ, ijtimoiy faoliyat, loyihalashtirish.

Аннотация. В данной статье даны сведения и методические рекомендации по вопросам организации работы дошкольной образовательной организации по сотрудничеству с семьей, включая виды учебно-воспитательных процессов и диалога, осуществляемого между воспитателем и родителями, таабс, которые ставятся на организацию родительских собраний, деятельность воспитателя, порядок проведения общих родительских собраний, пути обеспечения их результативности.

Ключевые слова: сотрудничество, взаимодействие, отношения, воспитание детей, семинар, конференция, театральные представления, фотовыставки, родительское собрание

Annotation. This article provides information and methodological recommendations on the issues of organizing cooperation of the preschool organization with the family, on educational processes and types of communication carried out between the educator and parents, on the activities of the educator, the procedure for conducting general parent meetings, ways to ensure their effectiveness.

Keywords: cooperation, interaction, attitude, parent, workshop, conference, theatrical performances, photo exhibition, parent meeting

Annotation. The article is pedagogical for preparing future teachers for interpersonal relationships in the context of globalization – pedagogical teachings on psychological specificity, the comprehensive formation of today's youth and the ever-increasing exchange of information in the process of interaction of individuals in the development of social society, the further improvement of socio-pedagogical activities aimed at their comprehensive maturation, focusing on educational integrative and educational-creative content, opinions are expressed on the design of the process of social activity on the basis of the combination of educational-integrative and educational-creative process of preparing future teachers for interpersonal relationships.

Keywords: globalization, future teacher, interpersonal relationships, pedagogical – psychological identity, social society, interaction, educational integrative, educational-creative, social activity, design.

Mamlakatimizda ma'rifatli jamiyat barpo etish, inson qadrini ulug'lash, ijtimoiy ma'naviy makonni kengaytirish, intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashda, har qachongidan sifatli ta'lim berishda buyuk allomalar ilmiy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish va targ'ib etish, ularning zamon ruhiga mos g'oyalaridan o'sib kelayotgan yosh avlodni munosib vorislar qilib tarbiyalashda foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlar maqsadi har jihatdan, Bo'lajak pedagog kadrlarning salohiyatli, mustaqil fikrga ega, shuningdek, shaxslararo munosabatlarga kirishishga har tomonlama tayyor bo'lishini taqozo etadi. Sharq mutafakkirlarining nodir merosi bu sohada o'ziga xos pedagogik imkoniyatlarni oshirishga keng yo'l ochadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Tomirlarida buyuk bobolarimizning qoni oqayotgan yoshlarimiz ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari bo'lishi, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilib yashashi va yuksak marralarga erishishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur. Yangi O'zbekiston yoshlari ana shunday yuksak darajalarga ko'tarilishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solamiz".

Shu jihatdan, Sharqning buyuk mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Zahiriddin Muhammad Bobir, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Maxmud Zamaxshariy, Bahouddin Naqshband merosidagi shaxslararo munosabatlarga oid qarashlarni ilmiy nuqtayi nazardan chuqur o'rganish, zamonaviy bilimlar bilan uyg'unlashtirish, ta'lim tizimidagi va axloqiy-tarbiyaviy ishlarimizdagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mazmun mohiyatini takomillashtirish, ajdodlar tajribasiga asoslangan milliy pedagogikamiz

po'ydevorini mustahkamlash imkoniyatini kengaytiradi.

Sharq mutafakkirlari merosini o'rganish davlat siyosati darajasiga chiqishi bu hayotiy zarurat bo'lib, kelajak avlodlarimiz buyuk ajdodlar merosidan to'la bahramand bo'lishni taqozo etadi. Bu millatimizning o'zligini anglab yetish, ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirish, mamlakatimizning kelajak yo'lini belgilab olish uchun xizmat qiladi.

Globalashuv sharoitida yoshlarning har tomonlama shakllanishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat taraqqiyotining bugungiday tezkor, o'zgaruvchanligi, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi axborot almashuvining tobora kuchayib borayotganligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyatni yanada takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Ahamiyatli jihati shundaki, bugungi yoshlar o'z-o'zini anglash va takomillashtirish, istiqbol rejalarini belgilash hamda ularga muvofiq amaliy harakatlarni tashkil etishda tobora faollik ko'rsatib, kichik maktab yoshidanoq kasbiy yo'nalishni tanlash, xorijiy tillarni o'rganishga jiddiy e'tibor qaratmoqdalar.


Bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash muhim ijtimoiy pedagogik zaruriyat hisoblanib, ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish hamda natijadorlikni ta'minlash bilan birga ayrim hollarda yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash asosan ta'limning sifatiga yordam berishi bilan birga o'zaro insoniylik muhitining qaror topishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. qiladi. Shuningdek, o'quvchilarga ta'lim berishda, o'quv amaliyotida o'quvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashda, jamoaviy munosabatlarni tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga Bo'lajak o'qituvchi o'z o'quvchilarining turmush tarzi, oilasi va ularning Bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tahlil qilar ekanmiz bunda insondagi empatiya va taqdimotlilikning muhim ahamiyati ko'zga tashlanadi. Shaxslararo munosabatlarda shqi munosabatlarni tashkil etishda o'quvchilarning shaxsiylikiga e'tibor berish muhimdir. Bo'lajak o'qituvchilari o'quvchilarning shaxsiylikiga muvofiq tashqi munosabatlarni tashkil etish va ularning o'zlariga boshqalarga munosabatlariga ham o'ziga xos munosabatlarni tashkil etish kerak. Tashqi munosabatlarni tashkil etishda o'quvchilarning maqsadlariga e'tibor berish kerak.

Ta'lim-tarbiya jarayonidagi shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari uning rivojlanish darajasiga, tabiatiga, ijtimoiy psixologik xususiyatlariga va individlarga ta'sir etish darajasiga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchilar o'zaro bir-birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri - o'zaro bir - birlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr - g'oyalarga ko'ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir.

Bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari modifikatsiyasi jamlanmasi orqali o'qituvchi talaba faoliyatini izchil tashkil etish imkoniyati mavjud bo'ladi (1-rasmga qarang).

Bo'lajak o'qituvchi o'quvchilarni o'z suhbatdoshini yaxshi, diqqat bilan tinglashga o'rgata olsa, bu bilan unda o'z - o'ziga hurmatni ham tarbiyalashga erishadi. Demak, tinglash jarayoni ko'pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas ekan. Uning muloqotning samarali bo'lishidagi ahamiyati nihoyatda katta. Chunki tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar, g'oyalarning shakllanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun o'qituvchining har bir darsi ta'lim oluvchilar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham bir xilda yutuqqa erishadi.

Shaxslararo munosabatlar nuqtayi nazaridan o'quv jarayoni o'qituvchi bilan o'quvchini bog'lash usuli bo'lib, u quyidagicha namoyon bo'ladi. Bunda bilimlar bir shaxsdan ikkinchi shaxsga shunchaki uzatilmaydi. Bu tayyor holdagi tabiiy holatlarni o'zaro bir-biriga taqdim etish ham emas. Bu ochiq muloqotga asoslangan nomuntazam vaziyat bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri va teskari aloqa hisoblanib, birdamlikka asoslangan ta'limiy bog'lanishdir. Bu muammoli vaziyatlarni o'ziga xos tarzda muayyan maromda yechish yo'lidir. Birgalikdagi faollik natijasida o'quvchi hamda o'qituvchi bir xil maromda harakat qiladi va faoliyat ko'rsatadi. Bu esa, qo'zg'atuvchi ta'lim jarayoni hisoblanadi.



Asosiy muammo shundan iboratki, o'quv jarayonini qanday boshqarish, bu jarayonni o'quvchilarning rivojlanishlariga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda o'quvchining o'z-o'zini boshqarish va uni qo'llab-quvvatlashga asoslangan o'quv vaziyatini tashkil etish muhimdir. Asosiy muammo bo'shliqqa qanday barham berish, uning o'rnida ijodiy muhitni vujudga keltirish, uni tabiiy innovatsiyalar tug'iladigan jarayonga aylantirish muhim vazifalardan biridir. Ta'lim jarayoniga shaxslararo munosabatlar nazariyasiga asoslangan holda yondashish yo'naltiruvchi va qo'zg'atuvchi ta'lim jarayonini vujudga keltirish, uni o'z-o'zi va boshqalar bilan shaxslararo munosabatlar asosida tashkil etishdan iborat.

Ko'rib o'tilganlardan shu narsa ayonki, bilishning muayyan shakli mavjud bo'lib, bu ta'lim-tarbiya jarayoni va o'quvchining hayotiy faoliyatidir. Muayyan darajada samarali harakat qilish uchun zarur vaqt va zarur paytda harakat qilish lozim. Bu o'rinda o'quvchiga to'g'ri ta'sir ko'rsatish haqida fikr yuritish kerak. Bunday ta'sirning natijasi odatda kutilmagan va turli-tuman bo'ladi.

Shaxslararo munosabatlarga asoslangan ta'lim jarayonini modellashtirish o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga asoslangan pedagogik jarayonni vujudga keltirishni nazarda tutadi. Mazkur jarayonni boshqarish vazifasining to'g'ri yechilishi uni samarali tashkil etish bilan bog'liq. To'g'ri tashkil etilgan shaxslararo munosabatlar ka asoslangan pedagogik jarayon nafaqat oddiy, balki murakkab didaktik vaziyatlar samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, har qanday pedagogik texnologiya o'quv jarayonining mohiyatini ifodalovchi ta'lim tamoyillariga asoslangan bo'lib, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilishi lozim. Shunday ekan, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqoti, ularning bir-biriga ko'rsatadigan ta'siri, o'quvchilarda insoniylik xislatlarini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Bunday do'stona munosabat jarayonida o'quvchilarda shaxslararo munosabatlar da ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

Shaxslararo munosabatga asoslangan ta'lim jarayonida o'quvchilar o'zaro fikr almashadilar, muomala qilish madaniyatini egallaydilar, har bir o'quvchi o'zi, guruhdoshlari, sinfdoshlarining muvaffaqiyati uchun harakat qiladi. Natijada ularda o'zaro ishonch va samimiy do'stona munosabat tarkib topadi. Birdamlilik, hamjihatlilik kuchi va sinfdoshlarining yutuqlari uchun mas'uliyatni his qila boshlaydilar. Bu jarayonda har bir o'quvchi boshqaruvchilik ko'nikmalarini egallash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu tarzda o'quv-biluv muhitida hech qaysi o'quvchi kamsitilmaydi, zaif tomonlari ko'zga taslanmaydi, balki ularning har biriga qobiliyati, ehtiyoji, kuchi va xohishi doirasida bilim olish imkoniyati yaratiladi. Sinfdan past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga qulaylik yaratilishi,

bilim olish bilan birga, shaxslararo munosabatlar da ishlash ko‘nikmalarining shakllantirilishi, fuqarolik va muayyan jamiyat a‘zosi ekanliklarini anglash imkoniyatining berilishi ta‘minlanadi.

Do‘stona munosabatlar asosida ta‘lim jarayonini tashkil etadigan o‘qituvchilarning qiyofasi va ish uslubida muayyan ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi. Dars jarayonining tarkibiy tuzilishidan tortib, o‘qituvchilarning bilimni baholashgacha, pozitiv, ijobiy munosabat, ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda belgilangan talablar namoyon bo‘ladi.

Shaxsning shakllanishida shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy tarixiy tabiati shundaki har bir insonning rivojlanishida shaxslararo munosabatlar jamiyat taraqqiyotidagi vaziyat, shart-sharoitlar bilan uzaro bog‘liq bo‘lib, u turli yosh davrlarda o‘ziga xos ravishda kechadi. Shaxslararo munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi. Bular: jamiyatning rivojlanish bosqichlari bilan shartlanishi, insonning jamoadagi umumiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lishi, har qanday tarixiy bosqich muhitining shaxslararo munosabatlarga asos hisoblanishi hamda ularning tuzilishini belgilashi kabilar.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda shuni autish joizki, ta‘lim sifatini oshirish uchun xizmat qiladigan muhim tamouillardan biri bu tarixga, urf-odat va an‘analarga, xususan, Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosiga murojaat qilish hamda undan samarali foudalanish hisoblanadi. Sharqning buuuk olim va mutafakkirlarining ilmiu merosidan pedagogik kadrlar tauuorlashning zamonaviu amaliuotida foudalanishning tegishli g‘oualari va tamouillari qabul qilindi. Bu yesa, kelajakdagi o‘qituvchilarning uangi kasbiu ko‘nikmalarni yegallash hamda uuqori fikrlash darajasini belgilashda muauuan xizmat qiladi. Vo‘lajak o‘qituvchilari o‘quvchilarning maqsadlarini tushunishi va ularni maqsadlariga yerishishi uchun kerakli kerakli uordamni berishi muhimdir. Vo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tauuorlash borasida tarixiu hamda xalqaro tajribalarga amal qilish lozim. Bu yesa, o‘quvchilarda shaxslararo munosabatlarni uaratish va muloqotlarni tashkil yetish kerakligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 6097 – son Farmoni

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni

3.Beruniy Abu Rayxon. O‘ylar, hikmatlar, naqlar, she‘rlar. To‘p. va nashrga tayyorlovchi Abdusodiq Irisov. T., «Yosh gvardiya», 1973. – 104 b.

4.N.G. Dilova, Sharq mutafakkirlari merosi vositasida ta‘lim jarayonidagi shaxslararo munosabatlarni o‘rnatishning pedagogik xususiyatlari,/ “Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlar” - Xalqaro jurnal 2022.№2